

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY-MADANIY MEROSLARNING O'RNI **(Mingtepa arxeologiya yodgorligi va ziyoratgohlar misolida)**

Xusanova Shaxloxon Artikaliyevna

KUAF, t.f.f.d. (PhD)

shahlohusanova4@gmail.com

Annotatsiya: Turizm sohasini rivojlantirishda Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar va ularning natijasi, ichki turizmni rivojlantirishda tarixiy-madaniy meroslarimizdan biri bo'lgan, miloddan avvalgi IV-milodiy V asrlarga tegishli bo'lgan Mingtepa arxeologiya yodgorligining tarixiy ahamiyati, ushbu yodgorlikni obodonlashtirish, undan oqilona foydalanish to'g'risida O'zbekiston Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlarining mohiyati, Buyuk ipak yo'lining "Qashqar-Farg'ona" yo'nalishida joylashgan Mingtepa shahri arxeologiya yodgorligi, arxeologik manbalar asosida tashkil etilgan ko'gazma, hamda Mingtepa yodgorligi joylashgan Andijon viloyati Marhamat tumanida mavjud bo'lgan ziyoratgohlar va shifobaxsh buloqlar, tuproqlar va qumning xususiyatlari hamda ziyorat va tibbiyot turizm yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari, takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, elektron viza, tarix turizmi, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi, Mingtepa arxeologiya yodgorligi, Buyuk ipak yo'li, ziyoratgohlar, shifobaxsh buloqlar, shifobaxsh tuproqlar, shifobaxsh qum.

Kirish: Turizm sohasi bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasi tomonidan shu soha uchun qabul qilinayotgan qator qaror va farmonlar turizmni rivojlantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratmoqda. O'zbekiston Prezidentining "2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2017-yil 16-avgustdagi PK-3217-sonli qarori, 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-sonli qonun va boshqa bir qancha qonun va farmonlar turizm sohasida yangi tushunchalar kiritdi va bu sohada davlat siyosatining prinsiplari va yo'nalishlari belgilandi. Elektron viza olishga imkoniyatlar yaratildi. Qo'shimcha "Vatandosh", "Talaba", "Akademik", "Ziyoratchi", "Tibbiyot" viza turlari joriy etildi [12].

Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri ichki turizmni jadal rivojlantirish, xalqimizni yurtimizdagi tarixiy-madaniy meroslarini va tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. Ushbu dastur asosida vatanimizda mavjud bo'lgan turistik maskanlarga qiziqish va e'tibor kuchaydi.

O'zbekistonda turizm sohasini innovatsion rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga, baquvvat turistik tarmoq yaratishga, aholi turmush darajasini oshirishga, tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlab qolishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyati darajasini va jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa Respublikamizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga va aholining bandligini ta'minlashga imkon yaratadi. Chunki mazkur soha vakilari sayyohlarga xizmat ko'rsatish, bo'sh ish o'rinlari yaratish, chet el valyutasi kirib kelishini ko'paytirish, turizm tarmoqlariga daromadlar olish bo'yicha bir qancha omillarni harakatga keltiradi.

Turizm sohasini rivojlantirishda sayyohlarni o'ziga jalb eta oladigan, qiziqтира oladigan muhim obektlar bo'lishi lozim. Buning uchun ma'lum bir hudud o'zining turistik resurslariga ega bo'lishi va ulardan to'g'ri foydalanish kerak. Respublikamizning turli joylarida turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida tarix turizmi yo'nalishi rivojlangan bo'lsa, Jizzax, Surxondaryo, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida eko va tibbiyot turizmi shakllangan.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, Andijon viloyati ham o'ziga xos jihatlari bilan turizmning turli yo'nalishlari tashkil topayotgan va rivojlanayotgan viloyatlar safiga qo'shilmoqda. Xonobod shahri, Xo'jaobod, Buloqboshi tumanlarida turizmni rivojlantirish uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, viloyatda tarix va ziyorat turizmi sohalari

rivojlanmoqda. Mahalliy va xorijiy sayyohlarning e'tiborini jalb qilayotgan va qiziqishlariga sabab bo'layotgan maskanlardan biri – tarix turizmi uchun xizmat qiluvchi Marhamat tumanida joylashgan Mingtepa arxeologiya yodgorligidir.

Asosiy qism: Dunyoda buyuk va qadimiy tarixini yorituvchi maskanlarga ega davlatlar barmoq bilan sanarli. O'zbekistonimiz ham shunday boy merosga ega davlatlar sirasiga kiradi. Andijon viloyatida joylashgan Mingtepa arxeologiya yodgorligi ham vatanimiz tarixini boyituvchi, dunyo tamaddunining beshiklaridan biri, shu bilan birga tarix turizmini rivojlantirish uchun qaynoq nuqtaga aylana oladigan joy deya e'tirof etilayotgan muqaddas maskanlardan hisoblanadi. Shuningdek, ushbu tarixiy shahar Buyuk ipak yo'lining "Qashqar-Farg'ona" yo'nalishida joylashgan bo'lib, uzoq vaqt Sharq va G'arb davlatlarini savdo, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan bog'lab turuvchi ko'priq vazifasini o'taganligi bilan ham muhimdir [7].

Mingtepa arxeologiya yodgorligi Andijon shahri markazidan 38 km. uzoqlikda, hozirgi Marhamat tumanining markazida joylashgan. Mingtepa tarixiy manbalarda yoritilishicha, qadimiy Davan (Parkana, Day-yuan) [11] davlatining markazi, ya'ni bosh shahri bo'lgan. Qadimgi Davan davlati tarixi haqida ilk ma'lumotlarni xitoy tilidagi manbalardan olishimiz mumkin. Xitoy yozma manbalarida tilga olingan Buyuk ipak yo'lida joylashgan bu mahobatli shahar o'zining hunarmandchiligi, dexqonchiligi va "samoviy tulporlari" bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Bu shahar xarobasi ichki va tashqi shahar qismlaridan iborat bo'lib, ichki qism taxminan 41 gektar, tashqi shahar qismi 272 gektar maydonni egallagan antik davr yodgorliklaridan biridir. Mingtepa shahar xarobasi mashhur arxeolog olimlar A.N. Bernshtam [5], Yu.A. Zadneprovskiy, B.X. Matboboyevlarning [9] izlanishlari natijasida olingan xulosalariga binoan, qadimgi Davan davlatining bosh shahri Ershi shahri ekanligi aniqlandi. Bu tarixiy obidada arxeologlar, professorlar M.YE. Masson 1939-yilda, A.N. Bernshtam 1946-1948 va 1950-1952 yillarda, Yu.A. Zadneprovskiy 1974 va 1987-yillarda, Boqijon Matboboyev rahbarligida 1986-1987, 2002-yillarda qazishma ishlari olib borilgan. Ayniqsa, 2012-yildan buyon tarix fanlari doktori, professor Boqijon Matboboyev rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Samarqand Arxeologiya instituti hamda Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti arxeolog olimlari hamkorlikda arxeologik dala tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Natijada qadimiy shahardan juda qimmatli ahamiyatga ega topilmalar, moddiy ashyolar topildi [8]. Bu topilmalar sayyohlarning qiziqishlarini va e'tiborini jalb qila oladigan noyob manbalardir.

Shuningdek, Mingtepaning tarixiy ahamiyati, turizm sohasini rivojlantirishdagi o'rni haqida mahalliy mualliflardan tarix fanlari doktori Mahmud Hasaniy, O. Mahmudovlar tomonidan ham ilmiy, ommabop asarlar yaratilgan [10]. Maqola muallifi tomonidan esa "Mingtepa" ilmiy-ommabop to'plami nashrdan chiqarilgan [14].

Andijon viloyati Marhamat tumanida joylashgan ziyoratgohlar haqida "O'zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari (Andijon va Namangan viloyatlari)" kitobi [13] hamda maqola muallifining "Mingtepa ziyoratgohlari va qadamjolari" [15] kitoblarida ma'lumotlar mavjud.

Hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan turizm sohasi uchun Mingtepa arxeologiya yodgorligi ham o'zining qadimiyligi, betakrorligi, tarixiy ahamiyati bilan sayyohlar e'tiborini jalb qilib, turizmning qaynoq nuqtasiga aylana oladi.

Mamlakatimizdagi madaniy meros ob'ektlari qatorida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrda 1059-son "Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi "Mingtepa" arxeologiya merosi ob'ektini muhofaza qilish, tadqiq etish va undan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qarorlari chiqishi ham bu muqaddas maskanda O'zbekistonimizning buyuk qadimiy tarixini, dovrug'ini dunyoga namoyon eta oladigan yodgorlik mavjudligidan dalolat beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, turizm faoliyatini yuksaltirish uchun, avvalo, Mingtepadagi tarixiy maskanlar, ziyoratgohlar va yodgorliklarni saqlash, obodonlashtirish, boy madaniy merosini tiklash uchun nafaqat hukumat darajasida, balki, fuqarolar e'tiborini ham tortishimiz darkor. Mingtepa yodgorligi va tumanda mavjud bo'lgan tarixiy ziyoratgohlarning ahamiyatini keng ommaga tushuntirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish orqali aholida,

ayniqsa, yoshlarimizda g'urur, faxr va daxldorlik hissini kuchaytirish, ushbu maskanlarni obodonlashtirib, turizm faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mingtepa arxeologiya yodgorligi asosida turizmni rivojlantirish borasida bir qancha ishlar boshlab yuborilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2019-yil 16-may kuni Andijon viloyatiga tashrifi davomida maqola muallifi tomonidan yurtboshimizga taqdim etilgan "Mingtepa arxeologiya yodgorligini obodonlashtirish, uning bazasida turizmni tashkil etish va rivojlantirish" loyihasi qo'llab-quvvatlandi. Sh. M. Mirziyoyev ushbu tarixiy shahar haqida *"Mingtepadek buyuk tariximizni yorituvchi, isbotlovchi maskanlarimiz bor ekan, biz boshqalar oldida boshimizni ko'tarib yurishimiz kerak. Albatta bunday buyuk o'tmishimiz haqida avvalo o'zimiz yoshlarimiz ichida keng targ'ib qilishimiz kerak"* degan fikrlarni bildirgan.

Mingtepa tarixiy yodgorligi nafaqat mahalliy sayyohlarni balki chet ellik turistlarning ham katta qiziqishlariga sabab bo'layotgan maskandir. Tashrif buyuruvchilar orasida Xitoy, Yaponiya, AQSh, Italiya, Janubiy Koreya va MDH davlatlaridan kelgan sayyohlarning borligi biz uchun faxrlidir. Ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlari elchisi Pamela Spratlen xonimning Mingtepaga tashrifidan so'ng «O'zbekiston-24» kanaliga bergan intervyusida Mingtepa haqidagi fikrlari juda xayratlanarli: «Har qanday yerda turizmni rivojlantirish uchun bir omil alohida nazarda tutilishi lozim: sayyoh uchun mamlakatning o'zi qiziqarli bo'lishi kerak. O'zbekiston ana shunday qiziqarli davlatlar sirasiga kiradi. Samarqand, Buxoro kabi tarixiy shaharlar haqida ko'pchilik tasavvurga ega. Qadimiy shaharlarda tashrif buyuruvchi sayyohlarga yaratilayotgan sharoitlar ham o'sib bormoqda. Ammo, men ko'proq chet elda mashhur bo'lmagan shaharlari haqida gapirishni istardim. Masalan, Farg'ona vodiysidagi Mingtepa manzilgohini yaqindan tomosha qildim. Shubhasiz, bu ham sayyohlarni juda qiziqtiradi»[14].

Toshkent shahrida 2019-yil 22-yanvar kuni O'zbekiston Davlat tarixi muzeyida "Changandan Vandugacha" deb nomlangan ko'rgazma tashkil etildi. Ko'rgazmadan maqsad Xitoyning qadim Buyuk ipak yo'lida joylashgan shahri Changandan Mingtepagacha bo'lgan tarixiy joylardan topilgan qadimiy ashyolarni namoyish etishdan iborat bo'ldi. Ushbu ko'rgazma ochilishida Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi muxtor elchisi Szyan Yan xonim, o'zbek va xitoy tarixchi olimlari, ziyolilari ishtirok etdilar. Xitoy elchisi: "Mingtepa yodgorligi zaminida tashkil etilgan ushbu ko'rgazma ikki davlat o'rtasida madaniy va ma'naviy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi", deb yuqori baho berdi.

Bundan tashqari, Marhamat tumanining o'zida turizm uchun xizmat qila oladigan 70 ga yaqin maskanlar mavjud. Ular sirasiga 10 dan ortiq ziyoratgoh, 30 dan ortiq shifobaxsh buloqlar, o'nlab tarixiy va zamonaviy maskanlar bor. Ular orasida Mingtepa arxeologiya yodgorligi eng mahobatlilik va ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Marhamat tumanida o'zining betakror tabiati, tabiiy landshafti, shifobaxsh havo oqimi, ayniqsa, boy tarixiy merosidan foydalanib, turizmning agro, eko, adabiyot, tarix, ziyoratgoh, qishloq yo'nalishlarini tashkil etish mumkin. Marhamat tumani "Alitepa", "Qorovultepa", "Oqto'nli ota", "Toshtepa", "Jung'ortepa", "Yig'loqtepa", "Davkarota", "Lo'mbitepa", "Oqboshtepa", "Temiratki mozar", "Boboxuroson ota", "Xotin qum", "Qo'ychi xalfa", "Xo'ja Bosmon ota", "Go'zal ota", "Mirishkor ota", "Ko'kto'nli ota", "Bandi ota", "Chashmai muborak", "To'ra bobo ziyoratgohi", "Mulla To'ychi ziyoratgohi", "Tabib ziyoratgohi" [10] kabi qadimiy yodgorliklari, ziyoratgohlari, shifobaxsh buloqlarga boy hududligi bilan ajralib turadi. Ushbu tarixiy joylar bir necha asrlardan buyon halqimizning muqaddas maskanlari sifatida e'zozlanib kelinmoqda va ziyorat qilinmoqda.

Xalqimiz qadimdan ushbu maskanlarni ziyorat qiladilar va u yerdagi shifobaxsh buloq suvlari, tuproqlaridan davolanish maqsadida foydalanib kelmoqdalar. Garchi ushbu buloqlarning shifobaxshligi ilmiy asoslanmagan bo'lsada, amalda turli dardlarga shifo bo'layotganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, Xo'ja Bosmon ota ziyoratgohida qo'tir yarasi, quloq og'rig'iga shifo bo'luvchi buloqlar, Oqbosh ota ziyoratgohida toshma yaralarga, sochiga oq tushganlarga, oshqozon-ichak kasalliklariga shifo bo'luvchi buloqlar, Bobo Xuroson ota ziyoratgohida esa, suvchechak, sachratqi, toshma yaralariga shifo bo'luvchi buloqlar, Temiretki

mozor tepaligida esa temiretki kasalligiga shifo bo'luvchi tuproq, Xotin qum ziyoratgohida esa, qo'l, oyoq, bel og'riqlarga shifo bo'luvchi qumning mavjudligi bunga misoldir. Bu shifobaxsh maskanlardan respublikamizning turli viloyatlaridan, shuningdek, qo'shni Qirg'iziston, Tojikiston, Rossiya davlatlaridan ham bemorlar kelib shifo topayotganligi olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

Xulosa va takliflar: Mingtepa arxeologiya yodgorligi o'zining qadimiyligi, mahobatligi bilan turizmning qaynoq nuqtasi bo'la oladi. Shu sababli Mingtepa arxeologiya merosi va Marhamat tumanida mavjud bo'lgan ziyoratgohlar zaminida turizmning tarix va ziyorat yo'nalishlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Mingtepa yodgorligining tarixiy-arxeologik ahamiyatini, uning millatimiz tamadduni beshiklaridan biri bo'lganini e'tiborga olgan holda, mazkur ob'yektni xalqaro YuNESKO tashkilotining umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritish, Mingtepa tarixiy-me'moriy arxeologik yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzey-shaharga aylantirish, yodgorlikni turistik manzilga aylantirish choralari ishlab chiqish;

2. Mingtepa arxeologiya yodgorligi atrofida ko'plab sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi savdo, xizmat ko'rsatish va ovqatlanish shohobchalari tashkil etish orqali aholining katta qismini ish bilan ta'minlash, zamonaviy infratuzilma va aholining turmush farovonligiga erishish;

3. Hudud O'zbekistondagi eng ekologik toza, tabiiy landshafti, betakror tabiati, shifobaxsh havo oqimiga ega maskanlardan biri bo'lib, ushbu imkoniyatlardan foydalangan holda tumanda tarix, ziyorat, eko, adabiyot, qishloq, agro yo'nalishlarida turizmni tashkil etish mumkin. Marhamat tumanida mavjud bo'lgan 70 ga yaqin ziyoratgohlar va shifobaxsh buloqlar joylashgan maskanlarni yanada obodonlashtirib, u yerlarda dam olish maskanlari, kichik sanatoriylar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Mingtepa arxeologiya merosi va tumandagi mavjud ziyoratgohlarning tarixini, ma'naviy va madaniy ahamiyatini xalqimiz ayniqsa yoshlarimiz o'rtasida keng targ'ib qilish orqali ularni saqlab qolish, obodonlashtirish va ulardan oqilona foydalanish, ya'ni turizmning ziyorat va tibbiyot yo'nalishlarini rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги қонуни. 2019 йил 18 июль.ЎРҚ- 549. lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. 2017 йил 16 августдаги ПК-3217-сонли қарори.//lex.uz
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги 4068-сон “Моддий-маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. // lex.uz
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 29 декабрдаги 1059-сон “Андижон вилоятининг Марҳамат туманидаги “Мингтепа” археология мероси объектини муҳофаза қилиш, тадқиқ этиш ва ундан оқилона фойдаланиш тўғрисида”ги қарори. //lex.uz
5. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображения и Даванская (Ферганская) столица Эрши // Советская этнография. 1948. №4. -С.155-161.
6. Бичурин. Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. – М.-Л.: 1950.
7. Матбобоев Б.Х. Шамсутдинов Р.Т., Мамажонов А. Буюк ипак йўлидаги Фарғона шаҳарлари. – Андижон: Мерос, 1994 й. -Б.27.
8. Матбобоев Б.Х. Мингтепа: Археологик қазилмалар ва уларнинг таҳлили // “Водийнома”, 2019 й. №3(14). Б. 50-57.
9. Матбабаев Б.Х. Городище Мингтепа / Древние города Ферганской долины. – Ташкент. 2009 й.
10. Маҳмудов О. Эрши бу айнан Мингтепа // Турон тарихи. 2011. №1.